



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

1 (87) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

1 (87)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2026
январь

Received: 20.12.2025, Accepted: 06.01.2026, Published: 10.01.2026

UDK 614.47:614.253

AHOLI ORASIDA EMLASHGA NISBATAN ISHONCHNI MUSTAHKAMLASHDA HAMSHIRALAR FAOLIYATINING O'RNI

E.A.Shamansurova <https://orcid.org/0000-0003-1670-2675> e-mail: elmira_sh2003@mail.ru

M.A.Mannapova <https://orcid.org/0000-0001-7639-0568> e-mail: moxirafebruary@gmail.com

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Uzbekistan, Tashkent sh. Farobiy 2
tel: +998-78-1507825 e-mail: info@tma.uz

✓ Rezyume

Ushbu tadqiqotda Toshkent shahridagi oilaviy poliklinikalarda faoliyat yurituvchi hamshiralar orasida emlash bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalar baholandi. So'rovnoma natijalari vaksinatsiya haqida umumiy xabardorlik yetarli ekanini ko'rsatdi, biroq vaksinalarni to'g'ri saqlash, qo'llash sharoitlari hamda ota-onalar bilan muloqot jarayonida ayrim kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Asosiy to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida ish yuklamasining ko'pligi va oilaviy sharoitlar qayd etildi. Tadqiqot natijalari hamshiralarning malakasini oshirish va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish aholining emlashga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda emlash qamrovini kengaytirishda muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: vaksinatsiya, hamshira, xabardorlik, amaliyot, profilaktika.

РОЛЬ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЁР В УКРЕПЛЕНИИ ДОВЕРИЯ НАСЕЛЕНИЯ К ВАКЦИНАЦИИ

Э.А.Шамансурова <https://orcid.org/0000-0003-1670-2675> e-mail: elmira_sh2003@mail.ru

М.А.Маннапова <https://orcid.org/0000-0001-7639-0568> e-mail: moxirafebruary@gmail.com

Ташкентский государственный медицинский университет, Узбекистан, г. Ташкент, ул.
Фараби, 2 Тел.: +998-78-1507825 e-mail: info@tma.uz

✓ Резюме

В исследовании был изучен уровень знаний и практических навыков медицинских сестёр семейных поликлиник Ташкента по вопросам вакцинации. Результаты анкеты показали, что общая осведомлённость о видах вакцин и национальном календаре прививок достаточная, однако выявлены недостатки в соблюдении правил хранения, условиях применения и взаимодействии с родителями. Основными препятствующими факторами являются высокая рабочая нагрузка и семейные обстоятельства. Полученные данные подтверждают важность повышения квалификации и развития коммуникационных навыков медсестёр для укрепления доверия населения к вакцинации и повышения охвата прививками.

Ключевые слова: вакцинация, медицинская сестра, осведомлённость, практика, профилактика.

THE ROLE OF NURSES IN STRENGTHENING PUBLIC CONFIDENCE IN VACCINATION

E.A.Shamansurova <https://orcid.org/0000-0003-1670-2675> e-mail: elmira_sh2003@mail.ru

M.A.Mannapova <https://orcid.org/0000-0001-7639-0568> e-mail: moxirafebruary@gmail.com

Tashkent State Medical University, Uzbekistan, Tashkent city, Farobi Street, 2
Tel: +998-78-1507825 e-mail: info@tma.uz

✓ Resume

This study assessed the knowledge and practical skills of nurses working in family polyclinics in Tashkent regarding immunization. The survey results showed that overall awareness of vaccine types and the national immunization schedule is adequate; however, gaps were identified in vaccine storage practices, administration conditions, and communication with parents. The main barriers reported were heavy workload and family-related constraints. The findings highlight the importance of continuous professional training and enhanced communication skills among nurses to strengthen public trust in vaccination and increase immunization coverage.

Keywords: vaccination, nurse, awareness, practice, prevention.

Dolzarbligi

Xalqaro amaliyotda vaksina profilaktikasi aholining sog'lig'ini mustahkamlash va saqlashning eng qulay hamda iqtisodiy jihatdan samarali usullaridan biri sifatida e'tirof etilgan [3, 7]. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishildi: normativ-huquqiy baza takomillashdi, yangilangan milliy emlash taqvimini joriy qilindi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanila boshlandi, shuningdek yangi avlod vaksinalaridan foydalanish kengaydi [5, 9].

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'zgarishlar, aholi migratsiyasi, ota-onalarning vaksina profilaktikasiga bo'lgan qarashlaridagi turli xil omillar emlash ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimida hamshiralarning roli tobora ortib bormoqda. Chunki ular nafaqat amaliy emlash jarayonlarini, balki aholiga tushuntirish ishlarini ham amalga oshiradilar. Demak, emlash bo'yicha hamshiralarning bilim va malakasini oshirish hamda ularning amaliy faoliyatidagi muammolarni aniqlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [4, 6, 8].

Tadqiqotning maqsadi — amaliy immunoprofilaktika jarayonida hamshiralar tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlash, ularning bilim darajasi va tayyorgarlik sifatini baholash hamda emlash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy omillarni belgilash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot oilaviy poliklinikalarda faoliyat yurituvchi **n=48** hamshiralar o'rtasida o'tkazildi. Maxsus ishlab chiqilgan anketa-so'rovnoma asosida ma'lumotlar yig'ildi. So'rovnoma 24 ta savoldan iborat bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi:

- vaksina profilaktikasi to'g'risidagi umumiy xabardorlik (foйда va xavf, asosiy tushunchalar),
- emlashning milliy taqvimini va qoidalari,
- vaksinalarni saqlash va qo'llash sharoitlari,
- emlashdan keyin kuzatiladigan nojo'ya ta'sirlar,
- ota-onalar bilan ishlash jarayonidagi muammolar,
- hamshiralarning malaka oshirish tajribasi va unga bo'lgan ehtiyojlari.

Natijalar deskriptiv statistik usullar orqali tahlil qilindi: foizlar hisoblandi, 95% ishonch intervallari aniqlandi, guruhlar o'rtasidagi farqlarni baholash uchun χ^2 testi qo'llanildi. Shuningdek, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash maqsadida korrelyatsion tahlil o'tkazildi. Natijalar jadval va diagrammalar ko'rinishida taqdim etildi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar

Yosh tarkibiga ko'ra: 6,3% respondentlar 20 yoshgacha, 23,9% 21–30 yoshda, 50% — 31–40 yoshda, 20,8% — 40 yoshdan katta edi.

So'rovda qatnashganlarning aksariyati — **99%** hamshiralar — Toshkent shahri va viloyatida istiqomat qiladi. Ishtirokchilarning **41,7%** ida malaka toifasi mavjud emas, **27,1%** birinchi toifaga, **16,7%** ikkinchi toifaga, **10,4%** esa oliy toifaga ega.

Hamshiralarning oilaviy holati tahliliga ko'ra, **45%** respondent bir nafar, **41%** ikki nafar, **14%** esa uch nafar farzandga ega ekanliklarini bildirgan.

Malaka oshirish davri bo'yicha natijalar quyidagicha taqsimlangan: **33%** hamshira 1 yil oldin, **25%** — 3 yil oldin, **21%** — 5 yil oldin, **19%** esa 5 yildan ortiq vaqt avval malaka oshirganini qayd etgan. **4%** ishtirokchi bu savolga javob bermagan.

“**Kasbiy mahoratingizni oshirib turasizmi?**” degan savolga javoban **37,5%** hamshira *muntazam*, **33%** *onda-sonda*, **10,5%** *vaqt topolmayman*, deb javob bergan, **22%** esa bu savolga javob berishni istamagan.

“**Malaka oshirishingizga nima xalaqit beradi?**” degan savolga ishtirokchilarning **14%** — *ish yuklamasining ko‘pligi*, **53%** — *oilaviy sharoitlar*, **6%** esa *qiziqish yo‘qligi* sabab bo‘layotganini bildirgan. Qolgan **27%** respondent bu savolga javob bermagan.

“**Emlash nima?**” degan savolga so‘rovnomada qatnashganlarning **37%** — “*bolada kasalliklarga qarshi immunitet hosil qilish jarayoni*”, deb ta’rif bergan. **35%** ishtirokchi esa emlashni “*yuqumli kasalliklarning oldini olish chorasidir*”, deb hisoblaydi. Shuningdek, **4%** respondent “*emlash organizmning tashqi muhit ta’sirlariga bardoshlilikini kuchaytiradi*”, degan fikrni bildirgan, **22%** ishtirokchi esa savolni javobsiz qoldirgan.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, qatnashchilarning **98%** vaksinalarning turlari haqida ma’lumotga ega ekanliklarini bildirgan. Shuningdek, **89%** ishtirokchi *Milliy emlash taqvimini* bilishini aytgan, **6%** bilmasligini, yana **6%** esa bu savolga javob bermagan.

“**Qanday holatlarda emlashni o‘tkazish mumkin emas?**” degan savolga hamshiralalar quyidagi javoblarni bergan: bola virusli infeksiya bilan og‘riganida, nevrologik muammolar mavjud bo‘lganda, tana harorati ko‘tarilganda, ich ketish holatida, dori vositalariga allergiya bo‘lsa, shamollash, tibbiy yoki shifokor tomonidan qo‘yilgan vaqtinchalik cheklovlar, epilepsiya yoki boshqa kasallik belgilari kuzatilganda emlash tavsiya etilmasligi aytilgan.

“**Ish faoliyatingiz davomida emlashdan keyin qanday nojo‘ya ta’sirlar kuzatiladi?**” degan savolga ishtirokchilarning **87%** tana haroratining ko‘tarilishi, emlangan sohada og‘riq va qizarish holatlari kuzatilishini ta’kidlagan, **6%** esa allergik toshmalar paydo bo‘lishi mumkinligini bildirgan.

“**Emlash jarayonining asosiy bosqichlari qaysilar?**” degan savolga **91%** hamshira ota-onalarga vaksinatsiya haqida ma’lumot berish, bolani shifokor ko‘rigidan o‘tkazish, tana vazni va bo‘y uzunligini o‘lchash hamda patronaj ishlarini bajarish kerakligini qayd etgan.


“**Vaksinalarni saqlash qoidalari (temperatura va sharoitlar)**” bo‘yicha **52%** respondent vaksinani $-5\text{ }^{\circ}\text{C}$ da muzlatkichda, **16%** esa $+2\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan $+8\text{ }^{\circ}\text{C}$ gacha bo‘lgan haroratda saqlash zarurligini ko‘rsatgan. Ayrimlar vaksinani qorong‘i xonada, boshqalar esa yorug‘ xonada saqlash kerak deb hisoblagan. **8%** ishtirokchi bu haqda bilmasligini aytgan, **12%** esa javob bermagan.

Ko‘rsatkichlar	Qatnashchilar soni (n=48)		
	abc	%	95% Ishonch intervallari
Yoshi			
20 yoshgacha	3	6,3%	0-13%
21–30 yosh	11	23,9	11-35%
31–40 yosh	24	50%	36-64%
40 yoshdan katta	10	20,8%	9-33%
Farzandlar soni			
1 ta bola	4	8,3%	0-17%
2 ta bola	10	20,8%	9-33%
3 ta bola	28	58,3%	44-72%
4 va undan ortik	6	12,5%	3-22%
Malaka toifasi			
Malaka toifa mavjud emas	20	41,7%	28-56%
1-toifa	13	27,1%	14-40%
2-toifa	8	16,7%	6-28%
Oliy toifa	5	10,4%	2-19%
Oxirgi malaka oshirgan vaqti			
1 yil oldin	16	33,3%	20-47%
3 yil oldin	12	25,0%	12-38%
5 yil oldin	10	21,8%	9-33%
5 yildan ko‘p	9	18,8	7-31%

Kasbiy maxoratingizni oshirib turasizmi?			
muntazam	18	37,5	23-52%
Onda-sonda	16	33,3%	20-47%
Qo'lim tegmaydi	5	10,5	2-19%
Javob bermagan	9	18,8	7-31%
Malaka oshirishingizga nima halaqit beradi			
Yuklamaning ko'pligi	7	14,6	4-25%
Oilaviy sharoiti tufayli	25	52,1	38-66%
Qiziqishning yo'qligi	3	6,3	0-13%
Javob bermagan	13	27,1	14-40%


“Anafilaktik shok holati kuzatilganda qanday tez tibbiy yordam ko'rsatasiz?” degan savolga 50% respondent birinchi yordam sifatida *deksametazon in'ektsiyasini mushak orasiga yuborishni* ko'rsatgan, 25% zudlik bilan shifokorni chaqirish lozimligini bildirgan. 6% ishtirokchi vrach ko'rsatmasiga binoan yordam ko'rsatish kerakligini aytgan, 14% esa savolni javobsiz qoldirgan.

“Ish faoliyatingiz davomida emlash bilan bog'lik qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?” degan savolga so'rov qatnashchilaridan 33% ota onalarni emlash haqida tushunchaga ega emasligidan, 8% ota-onalarni bolada emlashdan so'ng tana harorati ko'tarilishidan qo'rqishi, 16% bolaning buvisi, otasi tomonidan emlashga qarshilik qilish yani ruxsat bermaslik holatlari uchrashi, 14% bolalarni emlashga o'z vaqtida sababsiz olib chiqilmasligi, 10% esa ota-onalarning etiborsizligi bolasiga vaksina olishni hohlamasligi, hamshiralarning 4% emlash bilan bog'liq hech qanday qiyinchiliklarga uchramagan, 15% ushbu savolga javob bermagan.



“Ish faoliyatingiz davomida ko'pincha bolalarni emlashlarni o'z vaqtida olmasligiga nima sabab bo'ladi?” Degan savolga 29%holatlarda bolani salomatligi tufayli, 18% holatlarda esa shifokorlar tomonidan vaqtinchalik tibbiy cheklovlar, 14% esa ota-onalarni emlashdan bosh tortishi, 10% ota-onalarni diniy tomondan to'g'ri kelmaydi deb hisoblashi sababli, 21% yashash joyini tez-tez o'zgartirishi sababli deb javob berishgan.

Bolalarni emlashlarni o'z vaqtida olmasligiga nima sabab bo'ladi?




So'rov natijalariga ko'ra, hamshiralarning ko'pchiligi 83% emlanishga ijobiy munosabatda pozitiv (emlash zarur deb hisoblayman), 10% neytral (emlashga qarshiligim yo'q), 0% salbiy (emlashga ishonmayman) deb javob berishgan faqat 7% ushbu savolga javob bermagan.

“Bolalarga qaysi vaqtda emlash o'tkazilishi ma'qul?” degan savolga quyidagicha javob berishgan 52% qat'iy emlash jadvali buyicha, 16% individual grafik buyicha, 25% bolaning salomatlik holatidan kelib chiqqan xolda.

“Emlashlarni qayerda olgan ma'qul va ishonchli sizning fikringiz?” Ushbu savolga 77% poliklinikada, sababi sifatida poliklinikada qilinadigan vaksinalarni ishonchliligi, davlat tomonidan nazorat ostidaligi deb javob berishgan. 23% xususiy vaksina markazlarida sababi sifatida esa asoratlarning kamroq kuzatilishi deb javob berishgan.

Emlashlarni qayerda olgan ma'qul va ishonchli sizning fikringiz?



“Vaksinalar tug'risida ma'lumotlarni qaysi manbalardan olasiz?” Degani savolga 10% ilmiy jurnallardan, 10% trening va seminarlardan, 33% internet orqali, 42% xamkasblardan vaksina xaqida ma'lumot olishadi.

“Immunoprofilaktika soxasida bilimingizni oshirishni xoxlaysizmi?” Degani savolga xamshiralarning 94% bilimlarini oshirishni xoxlashlarini yozib qoldirishgan faqatgina 6% esa o'zi shundoq xam ishimiz ko'p deb javob berishgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, hamshiralar orasida emlash bo'yicha umumiy bilim darajasi yetarli bo'lsa-da, amaliy ko'nikmalarda sezilarli kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, vaktsinalarni to'g'ri saqlash, transportirovka sharoitlari, hujjatlashtirish va ota-onalarga ma'lumot berish borasida yetarli tayyorgarlik yo'qligi aniqlandi.

Vaktsinalarning saqlanish qoidalariga rioya qilinmasligi yoki amaliy xatoliklar immunoprofilaktika samaradorligining pasayishiga hamda postvaktsinal asoratlarni xavfining oshishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, respondentlarning bir qismi muntazam ravishda oshirish imkoniga ega emasligi, bunga mehnat yuklamasining ko'pligi va oilaviy sharoitlar sabab bo'layotgani aniqlangan. Shu bois, emlash sohasida faoliyat yurituvchi hamshiralar uchun tizimli tarzda o'quv kurslari, seminarlar va amaliy treninglar tashkil etish zarur.

Aholining vaktsinalarga nisbatan ishonchini oshirish uchun hamshiralar kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ota-onalar bilan samarali muloqot olib borish va ularning savollariga ilmiy asoslangan javob bera olish muhimdir.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida emlash qamrovi kengayadi, aholining profilaktikaga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi va sog'liqni saqlash tizimining profilaktik yo'nalishi yanada kuchayadi. Natijada bolalar sog'lig'ini himoya qilish va yuqumli kasalliklarning oldini olishda sezilarli ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

ABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ivanovich B. N. [i dr.]. Rol obrazovatel'nogo komponenta v formirovanii priverjennosti naseleniya k vaktsinatsii protiv pnevmokokkovoy infektsii //Epidemiologiya i vaktsinoprofilaktika. 2022;1(21):92-97.
2. Lopatina M. V. [i dr.]. Baryery effektivnoy kommunikatsii po voprosam vaktsinatsii vzroslyx: rezulyaty glubinyx intervyyu s naseleniem i meditsinskimi rabotnikami Arxangelskoy oblasti //Kardiovaskulyarnaya terapiya i profilaktika. 2024;12(23):46-54.
3. Maslennikova N. P. Optimizatsiya organizatsionno-metodicheskix osnov immunoprofilaktiki v Rossiyskoy Federatsii 2022;186 pp.
4. Platonova T. A. [i dr.]. Prakticheskie voprosy vaktsinatsii detey v usloviyax polikliniki (po materialam ekspertnoj otsenki privityx v indikatornyx gruppax) //Tixookeanskiy meditsinskiy jurnal. 2018;3(73):33-37.
5. Rychkova O. A. [i dr.]. Analiz prichin, obuslovliyayushchix otkazy roditeley ot vaktsinatsii detey //Rossiyskiy vestnik perinatologii i pediatrii. 2020;4(65):317-317.
6. Sinyavina A. A. Analiz prichin otkaza ot profilakticheskix privivok roditelyami // FORCIPE. 2019. № Prilozhenie. S. 118–118.
7. Temirova V. N. [i dr.]. Vspyshki kori v sovremennoe vremya: problemy vaktsinatsii na territorii Dzhalsal-Abadskoy oblasti Kyrgyzskoy Respubliki za 2023 god //Byulleten nauki i praktiki. 2024;4(10):357-362.
8. Utebaeva N. Zh. N. Rol meditsinskoy sestry v povyshenii informirovannosti naseleniya o vaktsinoprofilaktike i preodolenii somneniya o nuzhnosti vaktsinatsii //In The World Of Science and Education. 2024;15(10):32-33.
9. Voz. Informatsionnyy byulleten. Dekabr 2020 //Sotsialnye aspekty zdorovya naseleniya. 2020;6(66):17.
10. Chto nuzhno znat o vaktsinoprofilaktike? Meditsinskiy tsentr Doktor Plyus [Elektronnyy resurs]. URL: <https://www.doc-plus.ru/sales/11/2641/>

Qabul qilingan sana 20.12.2025